

## VIII. XIZMATLAR

2022- yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 4 722,0 mlrd. so‘mni tashkil qildi va 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish 112,5 foizni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2022- yanvar-iyun oylari uchun)


	<i>mldr. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, %</i>	<i>Jamiga nisbatan %</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>4 722,0</b>	<b>112,5</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	246,0	121,0	5,2
moliyaviy xizmatlar	963,1	117,3	20,4
transport xizmatlari	1 081,9	111,8	22,9
shu jumladan: avtovoz xizmatlari	1 009,1	108,2	21,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	115,2	115,7	2,5
savdo xizmatlari	1 198,8	107,4	25,4
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	119,9	106,2	2,6
ta’lim sohasidagi xizmatlar	232,1	106,2	4,9
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	99,1	113,2	2,1
ijara xizmatlari	95,1	117,3	2,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	194,3	111,4	4,1
shaxsiy xizmatlar	166,9	108,0	3,5
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	76,3	108,9	1,6
boshqa xizmatlar	133,3	139,3	2,8

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yuqori hajm savdo xizmatlari (1 198,8 mlrd. so'm), transport xizmatlari (1 081,9 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (963,1 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (246,0 mlrd. so'm) ga to'g'ri keladi.

Eng kichik hajm, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari (76,3 mlrd. so'm), ijara xizmatlari (95,1 mlrd. so'm), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari (99,1 mlrd. so'm) ga to'g'ri keladi.


Shuningdek, boshqa xizmatlari (139,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (121,0 %), moliyaviy xizmatlari (117,3 %), ijara xizmatlari (117,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (115,7 %), o'sish sur'atlari yuqori bo'ldi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2022-yil yanvar-iyun oylari uchun)**



Xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari – 25,4 % ulush bilan etakchi o'rinni egallaydi. Xozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarining bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtiroyotgan xisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

**2022- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi**



Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (25,4 %), transport xizmatlari (22,9 %), moliyaviy xizmatlar (20,4 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,2 %) to‘g‘ri keladi.


Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlar sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2,1 %), ijara xizmatlar (2,0 %), shuningdek Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,6 %) ga to‘g‘ri kelgan.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda viloyatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifati va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 198,8 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 25,4 % ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 203,0 mln. so‘mga oshdi.

#### **Savdo xizmatlarining tarkibi (2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)**




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo‘lib, uning ulushi 75,0 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,7 % ga etdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 9,3 % ni egallaydi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida quruqlikdagi transport xizmatlari – 94,8 %, omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari – 4,6 %, pochta va kurerlik xizmatlari – 0,6 % ni tashkil etadi.


#### **Transport xizmatlarining tarkibi % da (2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)**



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtida rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdag'i xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi,%**  
**( 2022-yil yanvar-iyun oylari uchun)**



2022-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 246,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,0 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (95,1 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'g'ri keladi.

Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta'minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug'urta tashkilotlariga ko'rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

**Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**  
*(2022-yil yanvar-iyun oylari uchun)*



Natijada, 2022-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 963,1 mlrd. soʻmga teng boʻlib, oʼsish 117,3 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi 90,2 % ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta xizmatlarining ulushi 6,6 % ni, yordamchi moliyaviy faoliyat 3,2 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 79,7 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 20,3 % ga toʻgʻri keladi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %**  
*(2022-yil yanvar-iyun oylari uchun)*

79,7 %



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

**Yashash va ovqatlanish xizmatlari**


20,3 %



2021- yil yanvar-iyun oylari bilan taqqoslanganda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar ulushining ko‘payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatini rivojlantirish xisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O‘zbekistonning betakror tabiati, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo‘stligi sayohatchilarni o‘ziga jalb qiladi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning o‘sish sur’ati 115,7 % ni tashkil etdi.

**Ta’lim sohasidagi xizmatlarning hajmi va o‘sish sur’ati, %  
(2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)**




Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar birinchi navbatda ong va fikrlashdagi ijobiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlab, ma’naviyatni yuksaltirishga hissa qo‘shadi. 2022 yilning yanvar-iyun oylarida ta’lim sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 232,1 mlrd.so‘mga teng, o‘sish sur’ati esa 106,2 % erishildi.

O‘tgan yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslanganda ta’lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 32,9 mln. so‘mga oshdi.

**2022- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi**

	<i>mldr. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>4 722,0</b>	<b>112,5</b>	<b>100,0</b>
Urganch shahri	1 680,5	114,6	35,6
Xiva shahri	208,1	112,6	4,4
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	259,8	111,7	5,5
Gurlan	229,2	112,6	4,9
Qo‘shko‘pir	247,7	112,6	5,2
Urganch	357,2	107,4	7,6
Hazorasp	347,8	107,3	7,4
Tuproqqał'a	114,6	114,5	2,4
Xonqa	330,3	113,4	7,0
Xiva	257,1	112,8	5,4
Shovot	268,1	113,1	5,7
Yangiariq	231,5	111,4	4,9
Yangibozor	190,1	112,5	4,0


**Viloyat bo‘yicha xizmatharning umumiyligi hajmida shahar va tumanlarning ulushi  
(2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)**



Xizmatlar sohasining rivojlanishida eng katta ulush Urganch shahri (35,6 %), Urganch (7,6 %), Hazorasp (7,4 %), Xonqa (7,0 %) tumanlarida kuzatilmoqda. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Yangibozor tumani (4,0 %), Xiva shahri (4,4 %), Tuproqqa'l'a tumani (2,4 %) egallaydi.

#### **Hududlar bo‘yicha bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati, %**

*(2022-yil yanvar-iyun oylari uchun)*




2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, 2022-yil yanvar-iyun oylarida eng yuqori o‘sish sur’atlari Urganch shahri (114,6 %), Tuproqqa'l'a tumanida (114,5 %), va Xonqa tumanida (113,4 %) qayd etildi.

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o‘sishi kuzatilmoqda. Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 382,7 ming so‘mga oshib, 2 446,1 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘sish sur’ati 110,7 % qayd etildi.


#### **Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatkichlar**

*(2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)*



Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobjiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhum ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog‘liqdir.

### **Shahar va tumanlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o‘sish sur’ati**



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Urganch shahrida (11 400,7 ming so‘m), Xiva shahrida (2 179,8 ming so‘m), Yangibozor tumani (2119,3 ming so‘m) va Tuproqqa’la tumanida (2013,2 ming so‘m) ga to‘g‘ri keladi.

Hududlar o‘rtasida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha eng past ko‘rsatkich Qo’shko’pir (1 404,4 ming so‘m), Bog’ot (1528,2 ming so‘m) va Shovot (1533,9 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, 2022-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o‘sish sur’atlari Urganch shahrida (113,0 %) va Xonqa tumanida (111,4 %) qayd etildi.